

LISONIY O'ZGARUVCHANLIK VA UNI SOTSIOLINGVISTIK JIHATDAN O'RGANISH MUAMMOLARI

Nasirov Davranbek Palvannazirovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Alfraganus universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lisoniy o'zgaruvchanlikni sotsiolingvistik yondashuv doirasida o'rganish muammolari ko'rib chiqiladi, lisoniy o'zgaruvchanlikning tiplari va turlari, lisoniy me'yori bilan o'zaro bog'liqligi, lisoniy variantlarning paydo bo'lishi va faoliyatiga ekstralingvistik va ijtimoiy omillarning ta'siri ochib beriladi, jamiyatning ijtimoiy jihatdan har xilligi lisoniy variativlikni sotsiolingvistik yondashuv doirasida o'rganish zaruriyatiga olib kelishi, bunda tadqiqotning diqqat markazida til me'yori, so'zlashuv nutqi turli dialektlar (hududiy, ijtimoiy) va kasbiy jargonlar kabi turli lingvistik shakllar yotishi asoslanadi. Bunda sotsiolektlar milliy til doirasidagi ma'lum bir ijtimoiy guruh (kasbiy, tabaqa, yosh va boshqalar) nutqiga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlar yig'indisi sifatida sotsiolingvistikning o'rganish ob'ekti vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tilshunoslik, sotsiolingvistik yondashuv, variativlik, lisoniy variativlik, lisoniy me'yori, ekstralingvistik omil, ijtimoiy omil.*

Variativlik termini (lot. *variativus* – o'zgaruvchanlik) ijtimoiy tilshunoslik (nem. *Soziolinguistik*) faniga lisoniy birliklarning stilistik xususiyatlarida namoyon bo'luvchi xilma-xillik tushunchasi asosida kiritilgan bo'lib, til birliklarining jamiyatning turli qatlamlarida qo'llanishi bilan bog'liq lisoniy o'zgaruvchanlik hodisasi sifatida ta'riflanadi.

V. Yu. Mixalchenko tahriri ostidagi “Slovar sotsiolingvisticheskix terminov” lug'atida qayd etilganidek, variativlik til taraqqiyoti yo'lida turli intralingvistik va

ekstralingvistik omillar ta'sirida uning fonetik, morfemik, leksik, sintaktik, uslubiy kabi barcha sathlarida raqobatdosh ifoda vositalarini yaratish xususiyatidir [Slovar sotsiolingvistik terminov, 2006, b. 35-36].

Lisoniy variativlik til birliklarning o'zgaruvchanlikka moyilligi sababli vujudga kelib, ushbu birliklarning o'zgaruvchanligi ularning tegishli identifikatsiyasiga va dastlabki lisoniy birlik bilan bir-biriga bog'lanishiga to'sqinlik qilmaydi. Lisoniy variativlik lisoniy me'yorga oppozitsiya sifatida gavdalanadi va me'yordan farqli o'laroq nutq shart-sharoitlariga, ya'ni uslub, janr, vaziyatning rasmiylik/norasmiyligi, muloqot maqsadlari va h.k.larga bog'liq bo'ladi. Shu bois ham U. Labov so'zlovchi o'z nutqini vaziyatga qarab puxtalik bilan ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan variantlarni tanlashini, turli nutq uslublariga bir lisoniy birlikning turli variantlari, ya'ni markerlari tegishli bo'lishi mumkinligini, bunday markerlarning yig'indisi kontekstning stilistik differensiatsiyalanishiga, suhbatdoshlarning ijtimoiy tavsiflariga bog'liq sotsiolingvistik o'zgaruvchi mikdor sifatida aniqlanishini ta'kidlaydi [Labov, 1975, b. 150].

A. Mustayoki lisoniy me'yorning bir necha shakllari mavjudligini ta'kidlaydi:

- rasmiy me'yor;
- jamoaviy me'yor;
- cheklangan me'yor.

Rasmiy me'yor to'laligicha adabiy til me'yorlariga asoslanadi. *jamoaviy me'yor* - kundalik muloqotda amalga oshiriladi va tilning so'zlashuv shakli bilan ifodalanadi, unda adabiy me'yor o'rnatilgan so'zlashuv tili me'yorlariga ham tayaniladi, bundan tashqari, qaysidir sabablarga ko'ra keng ommaga ma'lum bo'lib, ko'p qo'llaniladigan quyi ijtimoiy qatlam vakillari tiliga xos birliklar (jargonizmlar, slengizmlar, argotizmlar, dialektizmlar)ni, shuningdek, shahar xalq tili, neologizmlar, o'zlashmalarni o'z ichiga oladi. *Cheklangan me'yor* professional, jargon, dialekt va sh.k.larni qamrab oluvchi ijtimoiy dialekt me'yori sifatida talqin etiladi [Mustayoki, 2013, b. 11].

Ushbu qarashdan kelib chiqqan holda, tilning umumiy tizimida til me'yorlari

bir-biri bilan yonma-yon mavjudligi, ularning o'zgarishi, tizimga kirib borishi ekstralingvistik omillar, jumladan, ijtimoiy quyi tabaqalarning hayotning turli sohalariga kirib borishi bilan bog'liqligini ta'kidlaymiz. Aynan jamiyatning ijtimoiy jihatdan har xilligi lisoniy variativlikni sotsiolingvistik yondashuv doirasida o'rganish zaruriyatiga olib keladi. Bunday tadqiqotning diqqat markazida til me'yori, turli dialektlar (hududiy, ijtimoiy), so'zlashuv nutqi va kasbiy jargonlar kabi turli lingvistik shakllar yotadi. Bunda sotsiolektlar milliy til doirasidagi ma'lum bir ijtimoiy guruh (kasbiy, tabaqa, yosh va boshqalar) nutqiga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlar yig'indisi sifatida sotsiolingvistikaning o'rganish ob'ekti vazifasini o'taydi.

Misol tariqasida talabalar nutqi xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi talabalar jargonini, yoshlar slengini, IT (ahborot texnologiyalari) mutaxassislarning professional jargonlarini, geymerlar jargonlarini, argo tilini, masalan, giyohvand moddalar sotuvchilar argosini keltirish mumkin. Bundan tashqari, guruh tili ham kasbiy, ham ijtimoiy, ham hududiy jihatdan ajratilishi mumkin, masalan, mahkumlar tili – qamoq jargonini oladigan bo'lsak, mahkumlarning past ijtimoiy mavqei, ishchi kasblari yoki kasbiy ma'lumotsiz, yopiq hududda isteqomat qiluvchi bunday guruhlar jamiyatdan ajralib, ozod qilinganidan keyin ham o'z nutqida qamoq jargoniga xos xususiyatlarini saqlab qolishadi.

Tizimli-funksional grammatika yo'nalishi vakillari (A.Makintosh, P.Stevens, M.A.K. Xollidey) lisoniy o'zgaruvchanlikning ikki turini ajratganlar:

- muloqot ishtirokchilar nutqining lingvistik xususiyatlariga asoslangan o'zgaruvchanlik: hududiy, tarixiy, ijtimoiy dialektlar, tilning standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan ko'rinishlari, tilning barcha darajalarida, birinchi navbatda, fonetik xususiyatlari bilan farq qiladigan idiolektlar;

- til variantlarini qo'llash doirasi va funksiyalariga asoslangan o'zgaruvchanlik. Bunda til variantlari bir tomondan o'z lisoniy shakli (leksika, grammatika va boshqalar) jihatdan farqlansa, ikkinchi tomondan:

- a) kommunikativ soha (siyosat, din, biznes va boshqalar);

b) idrok etish kanali (og‘zaki / yozma nutq / notiqlik);

v) ohang tonalligi (adabiy – so‘zlashuv, rasmiy – norasmiy, odobli – qo‘pol nutq va h.k.) jihatdan bir biridan ajralib turadi [Halliday, McIntosh, Stevens, 1964].

Til o‘zgaruvchanligi muammosi bo‘yicha tadqiqotlar tahlili uning quyidagi turlarini aniqlashga imkon berdi:

- sotsiolingvistik (ijtimoiy-lingvistik) variativlik – bunday o‘zgaruvchanlik zahirida ijtimoiy o‘zgarishlarning, vaziyatning, ona tilida so‘zlashuvchining ijtimoiy tavsiflarining til vositalarini tanlashga bo‘lgan ta’siri yotadi;

- diskursiv variativlik – janrlar, mavzular, ekspressiya, hodisalar, axborotni uzatish usullari kabi omillarning til taraqqiyotiga ta’siri;

- mintaqaviy variativlik – til o‘z regional ko‘rinishlari, til aloqalari, assimilyatsiya va boshqalarning ta’sirida o‘zgarishi;

- individual variativlik – tildagi etnik, yosh, jins bilan bog‘liq o‘zgarishlar;

- vaqtinchalik variativlik – til taraqqiyoti jarayonida (diaxronik aspekt) lisoniy birliklarining o‘zgarishi.

Lisoniy o‘zgaruvchanlik bo‘yicha diskurs nuqtai-nazardan olib borilgan tadqiqotlar juda kam uchraydi. Bu borada B. Bernsteyn va G. Vudzning *I think, In my opinion, I believe* (*Meningcha / o‘ylashimcha..., Menning nazarimda..., Ishonchim komilki...*) va boshq. kabi gap boshida keladigan, shuningdek, *...you know, ...don't you think* (*bilasizki..., ...deb o‘ylamaysizmi*) gap ohirida keladigan konstruksiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari va omillari qiyoslangan asarlari [Bernstein, 1966, b. 36] katta qiziqish uyg‘otadi. Ikkala turdagi konstruksiyalar ham so‘zlovchining aloqa o‘rnatish istagini va muhokamaga taklif qilishini anglatadi. Biroq, birinchi tur yuqori ijtimoiy tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan bo‘lib, so‘zlovchining o‘ziga, bayon etayotgan fikriga ishonchini ko‘rsatadi, bu ko‘proq yuqori ijtimoiy tabaqa vakillari nutqiga xos xususiyatdir. Ikkinchi turdagi konstruksiyalar esa so‘zlovchining o‘ziga ishonchsizligini, suhbatdosh uning fikrini ma’qullab, tasdiqlashiga muhtojligini anglatadi, va bu quyi ijtimoiy tabaqa vakillari nutqini tavsiflaydi.

Ushbu tadqiqotlar natijalari soʻzlovchilarning sotsiolingvistik tabaqalanishi mavjudligini koʻrsatadi: ijtimoiy mavqei qanchalik baland boʻlsa, soʻzlovchi oʻz fikrini shuncha ishonch bilan ifodalashga intiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy mavqe tushunchasi nutqda muayan lisoniy shakllarning qoʻllanilishiga taʼsir qiluvchi taʼlim, jins, millat, yosh kabi omillarni oʻz ichiga qamrab olishini nazardan qochirmaslik kerak.

Ijtimoiy tilshunoslik nuqtai nazaridan shaxsning milliy-madaniy mansubligi lingvistik oʻzgaruvchanlikka taʼsir etuvchi omil sifatida D.Gumpers, P.Braun, S.Levinsonlar asarlarida oʻrganilgan. Ularning tadqiqotlari natijalari shuni koʻrsatdiki, muloqot jarayonlari suhbatdoshlar tomonidan shaxs, jamiyat va madaniyatning rivojlanish darajasi va xususiyatlariga qarab turli yoʻllar bilan idrok etilishi va talqin qilinishi mumkin.

Bir qator tilshunos-olimlar nafaqat tilni, madaniy kontekstni, balki vaziyat kontekstini ham hisobga olish zarurligini taʼkidlaydilar. Bunda ishtirokchilarning oʻzlari, ularning kommunikativ harakatlari, vaziyatning xususiyatlari, nutqiy xatti-harakatlarining natijasi muhim sotsiolingvistik parametrlar sifatida qaraladi (B. Malinovskiy, J.R. Fers).

Shunday qilib, bir tomondan, har qanday fikr bayonoti uning tuzilishi va shakli nuqtai nazaridan emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekst nuqtai nazaridan koʻrib chiqilishi kerak. Ikkinchi tomondan esa, til tuzilmasining maʼnosi oʻz-oʻzidan ekstralingvistik kontekst bilan aynan bir vaqtda, chambarchas bogʻliq holda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belikov V.I., Krisin L.P. Социалингвистика. – М.: Просвещение, 2016. – 337 b.
2. Bell R.T. Социалингвистика. Цели, методы и проблемы. – М.: Международные отношения, 1980. – 320 b.

3. Blox M.Ya. *Языковая вариантность и её функциональный аспект // Вариативность в германских языках: функциональные аспекты: Сб. ст. – М., 1996. – С. 6-15.*
4. Ziyayeva S.A. Методика совершенствования социолингвистической компетенции студентов языковых вузов при обучении немецкому языку. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2019. – 252 b.
5. Labov U. Исследование языка в его социальном контексте // Новое в лингвистике. – М., 1975. – Вып. 7. – С. 96-181.
6. Mustayoki A. Разновидности русского языка: анализ и классификация // Вопросы языкознания. – 2013. – № 5. – С. 3-27.
7. Словарь социолингвистических терминов. / Отв. ред. V. Yu. Mixalchenko. – М.: Российская академия наук, 2006. – 312 b.
8. Firsova N.M. *Языковая вариативность и национально-культурная специфика речевого общения в испанском языке. – М.: Изд-во РУДН, 2000. – 128 b.*
9. Halliday M.A.K., McIntosh A., Stevens P. The Linguistic Sciences and Language Teaching. – London: Longmans, 1964. – 322 s.
10. Gumperz J.J. The social group as a primary unit of analysis in dialect study. // Social dialects and language learning. –Champaign, 1965.
11. Labov W. The social stratification of english in New York City. – The Edinburgh Building, Cambridge University Press, UK, 2006. – 485 p.
12. Gulmuradovna, J. N. (2025). XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Indexing*, 1(1), 86-90.
13. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy ta'lim muassasalarida arab tilini o'qitishning zamonaviy usullari*. In “Bir makon, bir yo'l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
14. Жураева, С. X. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.